
Shahrimizda «Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi» o'tkazilmoqda

Joriy yilning 1 mart kundan 1 aprely kungacha qadar viloyatimizda xususan shahrimizda Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi o'tkazilmoqda.

Shu munosabat bilan Farg'ona shahar Favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari tomonidan shahrimiz hududidagi korxon, tashkilot va muassasalarda, umumta'lim maktablari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarda oylik doirasida keng qamrovli profilaktik tadbir o'tkazilib kelinmoqda.

Tadbirlar davomida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish, aholining sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanishi holatlarini oldini olish, is gazi hamda gaz va havo aralashmasining chaqnashlarini oldini olish, sel-suv toshqinlar bilan bog'liq baxtsiz hodisalarni oldini olishlar yuzasidan amaliy va nazariy oquv seminar mashg'ulotlari o'tkazilmoqda.

Shuningdek, Farg'ona Markaziy dehqon bozori hududida tegishli tashkilot hodimlari bilan hamkorlikda aholining sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanishini (botulizm) oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar o'tkazilib, aniqlangan kamchiliklar joyida bartaraf qilinib, sifat sertifikatini bo'lmagan mahsulotlar savdodan chiqarilmoqda.

O.Xodjaev, Farg'ona shahar huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalar guruhi rahbari.

A.Apponov, Fargona shahar FVB xodimi, kapitan.

2023-03-26 00:28:54